

SamDVMCHBU 60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi I bosqich 106-107 guruh talabalari uchun "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya" kafedrasida dotsenti D.Eshimov tomonidan yozilgan "Og'izda va me'dada oziqalarning hazm bo'lishi" mavzusidagi ochiq ma'ruza mashg'uloti matniga

T A Q R I Z

Qishloq xo'jaligini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida tayyorlanayotgan veterinariya farmatsevtikasi ta'lim yo'nalishi talabalari "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan sog'lom hayvonlar organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarni, ularni qonuniyatlarini o'zlashtirib, organizmda kechadigan fiziologik jarayonlarni bilish va chorvachilikda sog'lom hayvonlar podasini yaratish, ulardan olinadigan mahsulotlarni sifat va samaradorligini oshirishda ilmiy hamda amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ma'ruza "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun fan va ishchi (sillabus) dasturi asosida o'zbek tilida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita rejasiga mos yoritilib, unda qo'llanilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralar, nazorat va test savollari mavjud. Ushbu ma'ruza matnida og'izda va me'dada oziqalarni hazm bo'lishi haqidagi fiziologik jarayonlar atroflicha yoritilgan.

Ma'ruza matnida oziqani og'iz bo'shlig'iga oziqalarni olishi, chaynashi, so'lak ajratish, yutish, me'dada oziqa hazmlanishining umumiy qonuniyatlari batafsil yoritilgan.

Ma'ruza talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka paydo qilib, bo'lajak mutaxassislarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Muallif ma'ruzani to'lig'icha yoritib, hazm sistemasini tuzilishi, vazifalari, hazm fermentlari haqida va so'lakning ahamiyatini atroflicha yoritib oziqa hazmining umumiy qonuniyatlarini ochib bergan.

Ma'ruza mavjud ilm-fanning zamonaviy innovatsion texnologiyalar va eksperimental laboratoriya tajribalari natijalari bilan boyitilgan, zamon, davr va fan taraqqiyotidan kelib chiqqan holda hayvonlarda og'iz va me'dada oziqaning hazmlanish usullari keltirilgan.

Ushbu "60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan b.f.n. dotsent D.Eshimov tomonidan yozilgan "Og'izda va me'dada oziqalarning hazm bo'lishi" mavzusidagi ma'ruzasini ijobiy baholayman va dars jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Sam. DVMCHBU "Hayvonlar fiziologiyasi,
biokimyosi va patologik fiziologiya"
kafedrasida, professor v.b, v.f.n**



R.F.Ro'ziqulov



SamDU MCHBU 60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi I bosqich 106-107 guruh talabalari uchun "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya" kafedrasida dotsenti D.Eshimov tomonidan yozilgan "Og'izda va me'dada oziqalarning hazm bo'lishi" mavzusidagi ochiq ma'ruza mashg'uloti matniga

TAQRIZ

"60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "Og'izda va me'dada oziqa hazm bo'lishi" mavzusida tayyorlangan ma'ruza darsining ishlanmasi: o'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi, texnologik xaritasi, tayanch iboralar, ma'ruza matni, tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan.

Ma'ruza "Hayvonlar fiziologiyasi" fanidan "60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun fan va ishchi (sillabus) dastur asosida rovon o'zbek tilida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita rejasiga mos yoritilgan bo'lib, unda qo'llanilgan asosiy va qoshimcha adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralar, nazorat va test savollari mavjud. Ushbu ma'ruza matnida "Og'izda va me'dada oziqa hazm bo'lishi" hayvon turi, yoshi, oziqalanish sharoiti, ajralayotgan shiralar tarkibi va miqdorlari atroflicha yoritilgan.

Ma'ruza matnida og'izda va me'dada oziqani og'iz bo'shlig'iga olinishi chaynashi, so'lak ajratish yutish, me'dada oziqa hazmlanishining umumiy qonuniyatlari hayvon turiga bog'liq batafsil yoritilgan.

Ma'ruza talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka paydo qilib, bo'lajak mutaxassislarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Muallif ma'ruzani to'lig'icha yoritib, hayvonlar og'iz va me'dasida oziqalarni parchalanishida so'lakning va me'da shirasi tarkibidagi fermentlarning ahamiyatini atroflicha ochib bera olgan.

Muallif o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasining kirish qismida mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar ma'lum qilishni, asosiy qismida talabalar e'tiborini jalb etish uchun pedagogik texnologiyalar va bilim darajalarini aniqlash uchun nazorat savollari, test savollari keltirilgan.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan. U o'zining mazmun va mohiyati, qo'yilgan masalalarning yoritilishi bilan dars mavzusiga mos keladi. Mazkur ishlanmani dars jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SH.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti "Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyosi" kafedrasida, mudiri Ph.D. dotsent

SH.Rashidov nomidagi SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i

